

**LITSENZIYALASH VA RUXSAT BERISH TARTIB-TAOMILLARIDA
“SUKUT — ROZILIK BELGISIDIR” TAMOYILINING HUQUQIY
TABIATI:**

MILLIY QONUNCHILIK VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI

Normuhamedova Surayyoxon Bobir qizi.

Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq kafedra o'qituvchisi.

Elektron manzil: s.normukhamedova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlarining litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olishda vakolatli organning belgilangan muddatda javob bermasligi holatida yuzaga keladigan huquqiy oqibatlar, ya'ni “sukut — rozilik belgisidir” (*tacit consent, silence is consent*) tamoyilining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi tartibga solinishi tahlil qilinadi. Muallif ushbu institutning huquqiy tabiati, uni amalga oshirishning elektron shakllari, shuningdek, Fransiya, Yevropa Ittifoqi va Qozog'iston Respublikasi kabi davlatlarning qiyosiy tajribasini o'rganib, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqqan.

Kalit so'zlar: litsenziyalash, ruxsat berish, sukut roziligi, yashirin (*tacit*) ruxsat, явочный tartib, tadbirkorlik erkinligi, elektron davlat xizmatlari, ma'muriy to'siqlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvining eng sezilarli shakllaridan biri litsenziyalash va ruxsat berish tizimidir. Ushbu tizim, bir tomondan, jamiyat va davlat manfaatlarini, fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, mulki hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, noto'g'ri tashkil etilgan taqdirda tadbirkorlik erkinligini cheklovchi ma'muriy to'siqqa aylanib qolish xavfini keltirib chiqaradi. Xususan, vakolatli davlat organlarining arizalarni ko'rib chiqish muddatlarini

choʻzib yuborishi, sababsiz rad javobi berishi yoki umuman javob bermasligi amaliyotda keng tarqalgan muammolardan biri boʻlib qolmoqda.

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida jahon amaliyotida “sukut — rozilik belgisidir” (fransuzcha — le silence vaut acceptation, inglizcha — silence is consent, tacit approval) nomi bilan mashhur boʻlgan huquqiy tamoyil keng qoʻllanilmoqda. Uning mohiyati shundan iboratki, vakolatli organ qonunda belgilangan muddat ichida arizani koʻrib chiqib, uni qanoatlantirish yoki rad etish toʻgʻrisida qaror qabul qilmasa, bu holat, umumiy qoida boʻyicha, talabgorning foydasiga hal etiladi.

Oʻzbekiston Respublikasida soʻnggi yillarda amalga oshirilayotgan maʼmuriy islohotlar, xususan, Prezidentning 2020-yil 24-avgustdagi “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6044-son Farmoni¹ hamda 2021-yil 14-iyulda qabul qilingan OʻRQ-701-son “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari toʻgʻrisida”gi Qonun² ushbu tamoyilni milliy qonunchilikka joriy etishning huquqiy asosini yaratdi. Shu bilan birga, institutning amaliy qoʻllanilishi, uning elektron shakllari va xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlili hozirgacha yetarlicha ilmiy oʻrganilmagan boʻlib, bu mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Maqolaning maqsadi — litsenziyalash va ruxsat berish sohasida sukut roziligi institutining huquqiy-normativ asoslarini tahlil qilish, uning ahamiyati va amaliyotdagi muammolarini aniqlash hamda xorijiy davlatlar tajribasi asosida

¹Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi PF-6044-son Farmoni “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”. <https://lex.uz/uz/docs/-4966394>

²Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagi OʻRQ-701-son “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari toʻgʻrisida”gi Qonuni // lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/5511879>

milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Ma'muriy huquq nazariyasida davlat organi bilan xususiy shaxs o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ikkita asosiy modelni ajratib ko'rsatish mumkin: "ruxsat etish tartibi" (razreshitelnyy / explicit consent) va "xabardor qilish (явочный) tartibi". Birinchisida faoliyatni amalga oshirish huquqi faqat vakolatli organning ijobiy qarori (litsenziya yoki ruxsatnoma berish) bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisida shaxs o'z faoliyati to'g'risida davlat organini shunchaki xabardor qiladi va alohida ruxsat talab etilmaydi. "Sukut — rozilik belgisidir" tamoyili esa ushbu ikki modelning oralig'ida joylashgan gibril huquqiy konstruktsiya hisoblanadi: umumiy qoida bo'yicha ruxsat etish tartibi saqlanib qoladi, biroq vakolatli organning o'z vakolatini amalga oshirmasligi (harakatsizligi) qonun kuchi bilan ijobiy qaror sifatida baholanadi.

Huquqiy adabiyotlarda ushbu institut turlicha nomlanadi: "tacit approval" yoki "tacit authorization" (yashirin ruxsat), "deemed consent" (rozilik deb hisoblanadi), fransuz huquqshunosligida — "décision implicite d'acceptation" (yashirin qanoatlantiruvchi qaror). Umumiy nazariy jihatdan bu tamoyilning huquqiy tabiati davlat organining harakatsizligini huquqiy fakt sifatida tan olishda, ya'ni harakatsizlikka ham huquqiy oqibat bog'lashda namoyon bo'ladi³. Ana shu ma'noda institut ikki muhim funksiyani bajaradi: birinchidan, u davlat organlari faoliyatining samaradorligi va javobgarligini oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi, chunki organ endi "javob bermaslik" orqali masalani "muzlatib qo'ya olmaydi"; ikkinchidan, u tadbirkorlik subyektlarining huquqiy kutish holatidan

³De Graaf K.J., Hoogstra N.G. Silence is Golden? Tacit authorizations in the Netherlands, Germany and France // Review of European Administrative Law. — 2013. — Vol. 6, No. 2. — P. 7–34.
SJIF: 5.051

xalos bo'lishi va o'z faoliyatini bashorat qilinadigan muddatlarda rejalashtirishi uchun qonuniy kafolat yaratadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sukut roziligi tamoyili barcha holatlarda ham qo'llanilavermaydi. Xalqaro tajribada, jumladan Yevropa Ittifoqi huquqida, ushbu tamoyilning qo'llanilishiga jamoat manfaati, uchinchi shaxslarning huquqlari, milliy xavfsizlik yoki atrof-muhitni muhofaza qilish kabi "ustuvor umumiy manfaat" asoslari bo'yicha istisnolar belgilanishi mumkin⁴. Bu, o'z navbatida, institutning cheksiz emas, balki qonun bilan aniq chegaralangan tartibga solinishi zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida ruxsat berish tartib-taomillarini huquqiy jihatdan takomillashtirish vakolatli organning qonunchilikda belgilangan muddatda qaror qabul qilmasligining huquqiy oqibati sifatida "sukut — rozilik belgisi" tamoyilini normativ jihatdan mustahkamlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur normani quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

"Agar vakolatli organ talabgorning litsenziyani yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish, uni berish yoki berishni rad etish muddati mobaynida talabgorga litsenziyani yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni bermasa va uni berishni rad etmasa, talabgor amalga oshirilishi uchun litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat olish niyatida bo'lgan faoliyatni (harakatni) amalga oshirish huquqiga ushbu moddaning oltinchi qismida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirganidan keyin ega bo'ladi".

Ushbu normani tahlil qilish quyidagi huquqiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

⁴Directive 2006/123/EC of the European Parliament and of the Council of 12 December 2006 on services in the internal market, art. 13(4).

Birinchidan, qonun chiqaruvchi vakolatli organning harakatsizligiga (arizani belgilangan muddatda ko‘rib chiqmaslik, ijobiy yoki salbiy qaror qabul qilmaslik) avtomatik ravishda ijobiy huquqiy oqibat bog‘lamaydi — talabgor huquqqa faqat qonunning oltinchi qismida ko‘rsatilgan qo‘shimcha shart-harakatlarni bajarganidan keyin ega bo‘ladi. Bu yondashuv “sof” (avtomatik) sukut roziligi modelidan farqli o‘laroq, “shartli” yoki “protsessual jihatdan tasdiqlanadigan” sukut roziligi modeli deb baholanishi mumkin. Bunday konstruktsiya, bir tomondan, talabgorning huquqini himoya qilsa, ikkinchi tomondan, huquqiy aniqlik va isbotlash muammosini keltirib chiqarishi mumkin — xuddi shunday muammo, quyida ko‘rsatilganidek, Fransiya tajribasida ham qayd etilgan.

Ikkinchidan, norma vakolatli organning ikki xil harakati (litsenziya berish yoki berishni rad etish) va bitta harakatsizligi (hech narsa qilmaslik) o‘rtasidagi farqni aniq ajratib ko‘rsatadi hamda faqat uchinchi holat — to‘liq harakatsizlik — uchun huquqiy oqibat belgilaydi. Bu konstruktsiya davlat organining passiv xatti-harakati orqali talabgor huquqlarini cheklashning oldini olishga qaratilgan bo‘lib, ma‘muriy javobgarlik tamoyilining amaliy ifodasidir.

Uchinchidan, litsenziyalash tizimining zamonaviylashuvi elektron boshqaruv vositalari bilan uzviy bog‘liq. Xorijiy davlatlarning qonunchiligini tahliliga ko‘ra Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari davlat xizmatlari markazlari tomonidan maxsus elektron tizim orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu norma sukut roziligi tamoyilini amalda samarali qo‘llashning texnologik kafolati sifatida baholanishi lozim, chunki elektron tizim arizaning qabul qilingan sanasini, ko‘rib chiqish muddatining tugash lahzasini va vakolatli organ tomonidan qaror qabul qilinmaganligi faktini obyektiv, o‘zgartirib bo‘lmaydigan tarzda qayd etadi. Bu, o‘z navbatida, “harakatsizlik faktini isbotlash”

muammosini, ya'ni sukut roziligi institutining eng zaif nuqtalaridan birini, sezilarli darajada bartaraf etadi.

Amaliyotda ushbu qonun qoidalarini ijro etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son “Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida”gi hamda 22-fevraldagi 86-son “Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartib-taomillari to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari qabul qilingan⁵. Ushbu qarorlar bilan tasdiqlangan “Litsenziya” axborot tizimi litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish jarayonini to‘liq raqamlashtirish, shuningdek, vakolatli organlar va Davlat xizmatlari markazlari faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi.

Sukut roziligi institutining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bir necha jihatdan namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, u tadbirkorlik subyektlarini ma’muriy amaldorlarning subyektiv (go‘yoki “sababsiz kechiktirish”) xatti-harakatlaridan himoya qiladi hamda “amaldorlar to‘sig‘i” (bureaucratic barrier) deb ataluvchi hodisaning oldini oladi.

Ikkinchidan, institut davlat organlari xodimlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytiradi, chunki endi ular arizani “sukut saqlash” yo‘li bilan hal qilmasdan, balki muddatida asoslangan qaror qabul qilishga majbur bo‘ladilar.

Uchinchidan, institut Jahon banki va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tavsiyalarida qayd etilgan ma’muriy to‘siqlarni soddalashtirish siyosatining tarkibiy qismi sifatida baholanadi — bu siyosatning asosiy g‘oyasi

⁵O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son va 22-fevraldagi 86-son qarorlari <https://lex.uz/docs/-5870213>

ortiqcha ma'muriy protseduralarni qisqartirish va davlat xizmatlarining bashorat qilinadigan muddatlarda ishlashini ta'minlashdan iborat.

Shu bilan birga, amaliyot bir qator huquqiy-texnik muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda:

— birinchidan, talabgorning sukut orqali paydo bo'lgan huquqini tasdiqlovchi alohida hujjat (masalan, elektron tizimdan chiqarilgan ma'lumotnoma yoki bildirishnoma) shakli va uni olish tartibi barcha sohalar bo'yicha yetarlicha aniqlashtirilmagan;

— ikkinchidan, qonunning oltinchi qismida ko'rsatilgan "qo'shimcha harakatlar" talabgordan qanday aniq xatti-harakatlarni talab qilishi amaliyotda noto'g'ri talqin qilinishi mumkin, bu esa huquqni qo'llash amaliyotida noaniqlikka olib kelishi mumkin;

— uchinchidan, sukut roziligi asosida boshlangan faoliyat keyinchalik vakolatli organ tomonidan sabab ko'rsatilmagan holda bekor qilinishi xavfi, agar bunday holat uchun aniq protsessual kafolatlar (sudga murojaat qilish yoki apellyatsiya kengashiga shikoyat qilish huquqi) belgilanmasa, tadbirkorlar uchun huquqiy notinchlik manbai bo'lib qolishi mumkin.

Fransiya ma'muriy huquqida uzoq vaqt davomida amal qilib kelgan an'anaviy qoidaga ko'ra, davlat organining ikki oy davomida javob bermasligi arizani rad etish (le silence vaut rejet) sifatida baholangan⁶. Biroq 2013-yil 12-noyabrda qabul qilingan 2013-1005-son Qonun ushbu tamoyilni tubdan o'zgartirdi: endilikda davlat organining ikki oy davomida sukut saqlashi, umumiy qoida bo'yicha,

⁶Loi n° 2000-321 du 12 avril 2000 relative aux droits des citoyens dans leurs relations avec les administrations, art. 21 (2013-yilgi 2013-1005-son Qonun bilan o'zgartirilgan tahrirda). [Elektron resurs].
<https://www.legifrance.gouv.fr/>

arizani qanoatlantirish (le silence vaut acceptation) sifatida talqin etiladi⁷. Ushbu islohot 2000-yil 12-apreldagi fuqarolarning ma'muriy organlar bilan munosabatlaridagi huquqlari to'g'risidagi Qonunning 21-moddasiga o'zgartirish kiritish yo'li bilan amalga oshirilgan bo'lib, davlat organlari uchun 2014-yil 12-noyabrdan, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va ijtimoiy sug'urta muassasalari uchun esa 2015-yil 12-noyabrdan kuchga kirgan⁸.

Shu bilan birga, fransuz qonunchiligi ushbu umumiy qoidadan bir qator istisnolarni ham nazarda tutadi: davlat xavfsizligi, konstitutsiyaviy yoki xalqaro majburiyatlar, shuningdek yaxshi boshqaruv talablari bilan bog'liq protseduralar uchun sukut, aksincha, rad etish sifatida baholanishi mumkin⁹. Har bir vazirlik bo'yicha bunday istisno protseduralarning aniq ro'yxati alohida hukumat qarorlari (dekretlar) bilan tasdiqlangan, bu esa institutning "umumiy qoida + aniq belgilangan istisnolar" tamoyili asosida qurilganligini ko'rsatadi¹⁰. Bundan tashqari, fransuz amaliyotida, xuddi O'zbekiston tajribasida bo'lgani kabi, "sukut orqali qabul qilingan qaror"ni isbotlash muammosi alohida muhokama mavzusiga aylangan — bu borada qonun chiqaruvchi organlarga arizalarning topshirilgan sanasini isbotlash bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish choralarini ko'rishni tavsiya etgan, biroq isbot yuki taqsimotiga oid umumiy qoidalar o'zgarmagan¹¹.

⁷Loi n° 2013-1005 du 12 novembre 2013 habilitant le Gouvernement à simplifier les relations entre l'administration et les citoyens, art. 1. [Elektron resurs]. <https://www.legifrance.gouv.fr/jorf/id/>

⁸Décrets d'application de la loi n° 2013-1005 du 12 novembre 2013, publiés au Journal officiel le 1er novembre 2014; Question sénatoriale n° SEQ150917696 du 03.09.2015. [Elektron resurs]. <https://www.legifrance.gouv.fr/>

⁹Loi n° 2000-321 du 12 avril 2000 relative aux droits des citoyens dans leurs relations avec les administrations, art. 21 (2013-yilgi 2013-1005-son Qonun bilan o'zgartirilgan tahrirda). [Elektron resurs]. <https://www.senat.fr/>

¹⁰Décrets d'application de la loi n° 2013-1005 du 12 novembre 2013, publiés au Journal officiel le 1er novembre 2014; Question sénatoriale n° SEQ150917696 du 03.09.2015. [Elektron resurs]. <https://questions.assemblee-nationale.fr/>

¹¹Question écrite à l'Assemblée nationale n° 49057 (14e législature) et réponse du Gouvernement relative à la preuve de la date de transmission d'une demande administrative. [Elektron resurs]. <https://www.legifrance.gouv.fr/>
SJIF: 5.051

Yevropa Ittifoqining 2006-yil 12-dekabrdagi 2006/123/EC-son “Ichki bozorda xizmatlar to‘g‘risida”gi Direktivasining 13-moddasi 4-bandiga ko‘ra, agar vakolatli organ arizani belgilangan muddat ichida ko‘rib chiqmasa, ruxsatnoma sukut orqali berilgan (tacit authorization) deb hisoblanadi, bundan mustasno holatlar “ustuvor umumiy manfaat” bilan asoslangan bo‘lishi lozim¹². Ushbu norma Yevropa Ittifoqiga a‘zo barcha davlatlar uchun majburiy xarakterga ega bo‘lib, xizmatlar bozorida tadbirkorlik va joylashish erkinligini ta‘minlashning muhim instrumenti sifatida baholanadi.

Niderlandiya, Germaniya va Fransiyaning ushbu direktivani milliy qonunchilikka implementatsiya qilish tajribasini qiyosiy o‘rgangan tadqiqotchilar K.J. de Graaf va N.G. Hoogstra ta’kidlashicha, uchala davlat ham sukut orqali ruxsat tamoyilidan turli darajada istisnolar o‘rnatish yo‘lini tanlagan, biroq bunday istisnolarning huquqiy asoslanganligi Yevropa Ittifoqi Adliya sudi nazoratidan o‘tishi shart bo‘lgan¹³. Xususan, Germaniya milliy qonunchiligida sukut roziligi tamoyili faqat qat’iy belgilangan faoliyat turlariga nisbatan qo‘llanilsa, Niderlandiyada bu tamoyil kengroq qamrovda joriy etilgan¹⁴. Lyuksemburg misolida esa milliy Davlat kengashi (Conseil d’État) ta’kidlaganidek, Direktivaning 13-moddasi milliy huquqning an’anaviy “sukut — rad etish” prezumpsiyasini

¹² Directive 2006/123/EC of the European Parliament and of the Council of 12 December 2006 on services in the internal market, art. 13(4). [Elektron resurs] <https://eur-lex.europa.eu>.

¹³ De Graaf K.J., Hoogstra N.G. Silence is Golden? Tacit authorizations in the Netherlands, Germany and France // Review of European Administrative Law. — 2013. — Vol. 6, No. 2. — P. 7–34.
<https://research.rug.nl/nl/publications/silence-is-golden-tacit-authorizations-in-the-netherlands>

¹⁴ De Graaf K.J., Hoogstra N.G. Silence is Golden? Tacit authorizations in the Netherlands, Germany and France // Review of European Administrative Law. — 2013. — Vol. 6, No. 2. — P. 7–34.
<https://research.rug.nl/nl/publications/silence-is-golden-tacit-authorizations-in-the-netherlands>

tubdan o‘zgartirib yuboradi hamda istisnolar faqat aniq va tor talqin qilinishi lozim bo‘lgan asoslarga tayangan holdagina belgilanishi mumkin¹⁵.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mintaqasida Qozog‘iston Respublikasi litsenziyalash-ruxsat berish tizimini yagona qonunchilik hujjatida kodifikatsiya qilgan davlatlardan biri hisoblanadi. 2014-yil 16-maydagi 202-V-son “Ruxsatlar va xabarlar to‘g‘risida”gi Qonun¹⁶ litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartiblarini yagona tizimga birlashtirgan bo‘lib, bu jihatdan u O‘zbekistonning 2021-yildagi O‘RQ-701-son Qonuniga konseptual jihatdan yaqin turadi. Qozog‘iston qonunchiligi arizalarni ko‘rib chiqish muddatlarini qat’iy belgilash, elektron hukumat portali orqali ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshirish, shuningdek, vakolatli organning qarorlari va harakatsizligi ustidan shikoyat qilish mexanizmlarini nazarda tutadi¹⁷. Bu tajriba shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy darajada litsenziyalash-ruxsat berish sohasini yagona kodifikatsiyalangan qonun asosida tartibga solish tendensiyasi kengaymoqda, bu esa O‘zbekiston tanlagan yondashuvning xalqaro amaliyotga mos kelishidan dalolat beradi.

Sukut roziligi tamoyilining yana bir ko‘rinishi Janubiy Koreya ma’muriy huquqida “ijobiy ma’muriyat” (positive administration) konsepsiyasi doirasida qo‘llaniladi, unga ko‘ra belgilangan muddatda javob berilmagan arizalar bir qator sohalarda avtomatik ravishda qanoatlantirilgan deb hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasida esa 2011-yil 4-maydagi 99-FZ-son “Ayrim faoliyat turlarini

¹⁵ Conseil d’État du Grand-Duché de Luxembourg, avis n° 48.391 relatif à la transposition de la directive 2006/123/CE, art. 13, § 4. [chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://conseil-etat.public.lu/dam-assets/fr/avis/2010/03/48_391/48391.pdf](https://conseil-etat.public.lu/dam-assets/fr/avis/2010/03/48_391/48391.pdf).

¹⁶ Qozog‘iston Respublikasining 2014-yil 16-maydagi 202-V-son “Ruxsatlar va xabarlar to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://www.adilet.zan.kz/rus/>

¹⁷ Qozog‘iston Respublikasining 2014-yil 16-maydagi 202-V-son “Ruxsatlar va xabarlar to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://www.adilet.zan.kz/rus/>

litsenziyalash to'g'risida¹⁸gi Federal qonun¹⁸ doirasida sukut roziligi tamoyili umumiy qoida sifatida emas, balki alohida sohalarga (masalan, qurilish sohasidagi ruxsatnomalar) nisbatan tarmoq qonunchiligida qo'llaniladi, bu esa Fransiya va Yevropa Ittifoqi tajribasidan farqli o'laroq, "tarmoqlararo tanlab qo'llash" modelini aks ettiradi.

O'tkazilgan qiyosiy-huquqiy tahlil asosida quyidagi xulosa va takliflarni shakllantirish mumkin:

1) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida mustahkamlangan sukut roziligi konstruksiyasi ("shartli" model) xorijiy davlatlarning, xususan Fransiyaning, "sof" (avtomatik) modeliga nisbatan talabgor uchun qo'shimcha protsessual talab (qonunning oltinchi qismidagi harakatlarni bajarish) qo'yadi. Ushbu yondashuvning oqilonaligini yanada mustahkamlash maqsadida qo'shimcha harakatlar ro'yxati va tartibi barcha litsenziyalanadigan va ruxsat etiladigan faoliyat turlari bo'yicha bir xil aniqlik darajasida me'yoriy jihatdan belgilanishi maqsadga muvofiq;

2) Fransiya tajribasidagi kabi, sukut roziligi tamoyilidan istisno qilinadigan faoliyat turlarining yagona, ochiq va davriy yangilanib turadigan ro'yxatini yuritish (masalan, "Litsenziya" elektron tizimi negizida) tavsiya etiladi — bu talabgorlar uchun huquqiy bashoratlikni ta'minlaydi;

3) Yevropa Ittifoqi Xizmatlar to'g'risidagi Direktivasining 13-moddasidagi kabi, istisnolarni faqat "ustuvor umumiy manfaat" (jamiyat xavfsizligi, sog'liqni saqlash, atrof-muhit va h.k.) asoslariga tayangan holda belgilash tamoyilini qonun darajasida mustahkamlash institutning suiiste'mol qilinishining oldini oladi;

¹⁸Rossiya Federatsiyasining 2011-yil 4-maydagi 99-FZ-son "Ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi Federal qonuni. <https://government.ru/>
SJIF: 5.051

4) Elektron tizim orqali amalga oshiriladigan litsenziyalash-ruxsat berish tartib-taomillarining sukut faktini avtomatik tarzda qayd etuvchi va talabgorga elektron bildirishnoma shaklida taqdim etuvchi funksional imkoniyatini kengaytirish, bu esa institutning eng zaif bo'g'ini — huquqning paydo bo'lish faktini isbotlash muammosini — texnologik yo'l bilan bartaraf etadi;

5) Sukut roziligi asosida yuzaga kelgan huquqni keyinchalik bekor qilish yoki to'xtatib turish uchun aniq protsessual kafolatlar (sud yoxud apellyatsiya kengashiga shikoyat qilish muddatlari va tartibi) qonun darajasida takomillashtirilishi lozim.

Yakunlab aytish mumkinki, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarida “sukut — rozilik belgisidir” tamoyilining joriy etilishi O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati erkinligini ta'minlash va davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy huquqiy islohotlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. O'RQ-701-son Qonunda mustahkamlangan norma, garchi u “shartli” model asosida qurilgan bo'lsa-da, o'z mohiyatiga ko'ra Fransiya, Yevropa Ittifoqi va Qozog'iston Respublikasi kabi davlatlarning ilg'or tajribasiga hamohang bo'lib, ma'muriy to'siqlarni kamaytirish yo'lidagi muhim qadam sanaladi. Shu bilan birga, institutning amaliy samaradorligini yanada oshirish uchun uni elektron boshqaruv vositalari bilan chuqurroq integratsiya qilish, istisno holatlarni aniq me'yoriy jihatdan belgilash hamda talabgorlarning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilishi taqozo etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent, 2023.
<https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagi O‘RQ-701-son “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni // lex.uz, hujjat № 5511879. [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz/docs/5511879>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6044-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-4966394>
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son va 22-fevraldagi 86-son qarorlari // kun.uz, yuz.uz elektron nashrlari ma’lumotlari. <https://lex.uz/docs/-5870213>
5. Loi n° 2013-1005 du 12 novembre 2013 habilitant le Gouvernement à simplifier les relations entre l'administration et les citoyens // Journal officiel de la République française.) <https://www.legifrance.gouv.fr/>
6. Directive 2006/123/EC of the European Parliament and of the Council of 12 December 2006 on services in the internal market, Article 13(4). [Elektron resurs]. URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content>
7. De Graaf K.J., Hoogstra N.G. Silence is Golden? Tacit authorizations in the Netherlands, Germany and France // Review of European Administrative Law. — 2013. — Vol. 6, No. 2. — P. 7–34. chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://conseil-etat.public.lu/dam-assets/fr/
8. Qozog‘iston Respublikasining 2014-yil 16-maydagi 202-V-son “Ruxsatlar va xabarlar to‘g‘risida”gi Qonuni. [Elektron resurs]. URL: <https://adilet.zan.kz>

9. Rossiya Federatsiyasining 2011-yil 4-maydagi 99-FZ-son “Ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash to‘g‘risida”gi Federal qonuni. <https://government.ru/docs/>
10. Тихомиров Ю.А. Административное право и процесс: полный курс. — М., 2020.
11. Conseil d'État du Grand-Duché de Luxembourg. Avis relatif à la transposition de la directive 2006/123/CE. [Elektron resurs]. URL: <https://conseil-etat.public.lu>
12. Elektron litsenziyalash tizimi // gov.uz. [Elektron resurs]. URL: [https://gov.uz/uz/pages/Elektron litsenziyalash tizimi](https://gov.uz/uz/pages/Elektron_litsenziyalash_tizimi)